

Press-reliz. 2023-yil 19-oktabr kuni Toshkentda O'zbekiston va Tatariston ishbilarmonlar uchun asosiy biznes-forum bo'lib o'tdi.

// 18.10.2023

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzbekiston-tatariston-ishbilarmonlar-biznes-forumi-bulib-utdi>



Dastur doirasida quyidagi spikerlar so'zga chiqishdi:

- O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o'rinbosari Xurram Teshabayev;
- Rossiya Federatsiyasining O'zbekiston Respublikasidagi savdo vakili Konstantin Zligostev;
- O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasi raisining birinchi o'rinbosari Islom Jasimov;
- "Tatariston Respublikasi savdo-sanoat palatasi" uyushmasi raisi Shamil Ageyev;
- "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi Timur Muhamedjanov;
- "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparki direksiyasi direktori Jahongir Abdurahmonov;
- "O'zkimyosanoatloyiha" AJ bosh direktori Iskandar Ahmedjanov;
- O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo' mitasi boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari Shukrullo Mo'minov;
- O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasining xalqaro soliq solish bo'limi bo'limi boshlig'i Rano Alishayeva;
- "Tatariston Respublikasi savdo-sanoat palatasi" uyushmasi raisining o'rinbosari Marat Axmatov.

Forum ishtirokchilarining Tatariston Respublikasi raisi Rustam Minnixonov nomidan tabrigini Tatariston Respublikasi bosh vazirining o'rinbosari-Tatariston Respublikasi sanoat va savdo vaziri Oleg Korobchenko o'qidi.

Tadbir doirasida xorijiy investorlar uchun road-show, B2B uchrashuvlar, sohaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha muzokaralar o'tkazildi.

Biznes-forum doirasida ishtirokchilar "Jizzax" texnoparki bilan ham tanishadilar.

"Chirchiq" kimyo-industrial texnoparki matbuot xizmati